# Don qabul qilish maskanlarida qabul qilinayotgan g‘alla hosilini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida elektron torozilar orqali qabul qilish xizmati reglamenti

Kompaniya tarkibidagi korxonalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asosida ish tashkil etish, mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, samaradorlik ko‘rsatgichlarini ko‘tarish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, jahon standartlari talablariga javob berish, jahon bozoriga tavarlar olib chiqish maqsadida texnologik uskunalar navbatma-navbat yangilanmoqda.

Don qabul qilish shaxobchalarida qabul qilinayotgan g‘alla hosilini zamonaviy axborot texnologiyalari orqali nazorat qilish, hisobotlarni onlayn tarzda yuborish, inson omili aralashuvini kamaytirish, don korxonalari faoliyatini shaffofligini oshirish, tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida don korxonalari va ularning don qabul qilish shaxobchalariga elektron avtomobil torozilari o‘rnatildi. Elektron avtomobil torozilari 2017 yil g‘alla hosilini qabul qilishda to‘liq foydalanildi.

Kompaniya tarkibidagi korxonalar va ularning don qabul qilish shaxobchalariga o‘rnatilgan zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ishlovchi kompyuterlashtirilgan elektron torozilar on-layn tarzda ishlashi uchun barcha maskanlar internet tarmog‘i va video kuzatuv moslamalari bilan jihozlandi. Videokuzatuv moslamalari transport vositasi olib kelgan g‘alla hosilidan laboratoriya namunalari olayotgan joyni, transport vositasini maskanga kirganini, elektron toroziga kelganini, elektron torozilar operatori joylashgan torozixona faoliyatini, transport vositasini g‘alla hosilini to‘kish maydoniga berayotganini, g‘alla hosilini to‘kib elektron toroziga kelayotganini va maskandan chiqib ketayotganini uzluksiz kuzatib yozib boradi.

Har bir maskan uchun alohida ikki nafardan elektron torozilar operatori tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 1 avgustdagi “2016-2018 yillarda iqtisodiyotning real sektoriga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi PQ-2569-son qaroriga asosan don qabul qilish maskanlariga qabul qilinadigan boshoqli don mahsulotlarini elektron torozilar orqali olinayotgan ma'lumotlarni markazlashgan tizimga o‘tkazuvchi yagona interaktiv ko‘rinishga ega on-layn hisobotlar dasturi joriy etildi.

Qarorda belgilangan loyiha asosida kompaniya axborot texnologiyalari boshqarmasi tomonidan chora-tadbir ishlab chiqildi va amaliyotga tadbiq etildi.

Davlat xizmatini amalga oshirish uchun fermer xo‘jaliklari yetishtirgan g‘alla hosilini don qabul qilish maskanlariga transport vositalari yordamida olib keladi.

Hosil sifatini aniqlash uchun transport vositasi laboratoriya namunalari olinadigan maydonga olib kelinadi.

Laboratoriya namunalari olingandan so‘ng transport vositasi zamonaviy axborot texnologiyalari asosida jihozlangan kompyuterlashtirilgan elektron toroziga olib kelinadi.

Fermer xo‘jaliklari rahbarlari elektron torozilar operatoriga fermer xo‘jaligi ma'lumotlari kiritilgan yuk xatini taqdim etadi.

Fermer xo‘jaliklari rahbarlari elektron torozilarga keltirilgan transport vositasini og‘irligini torozixonalarning tashqarisi o‘rnatilgan tablo orqali nazorat qilishi mumkin.

Elektron torozilar operatori fermer xo‘jaligi transport vositasi yuki bilan og‘irligini elektron torozilar dasturiga qabul qilib bazaga saqlaydi va ma'lumotlarni fermer xo‘jaligi rahbari taqdim etgan yuk xatiga kiritadi.

Transport vositasi laboratoriya natijalari bo‘yicha belgilangan maydonga g‘alla hosilini tushirish uchun yuboriladi.

Transport vositasi belgilangan maydonga g‘alla hosilini tushirib bo‘lgandan so‘ng elektron torozilar bilan jihozlangan torozixonaga qaytib keladi.

Elektron torozilar operatori fermer xo‘jaligi transport vositasining yuksiz og‘irligini elektron torozilar dasturiga qabul qiladi va ma'lumotlarni fermer xo‘jaligi rahbari taqdim etgan yuk xatiga kiritadi.

Elektron torozilar operatori elektron torozilar dasturida qabul qilish amalini ishga tushirganda shu soniyaning o‘zida kompaniyaning markaziy bazasiga yangi ma'lumot kelib tushadi. Maxsus himoyalangan ruxsatga ega rahbarlar ma'lumotlar bazasiga kelib tushgan ma'lumotlarni ko‘rish va nazorat qilish imkoniyatiga ega.

Bu natija qabul qilingan g‘alla hosilini vizik vazni bo‘yicha hisoblanadi.

G‘alla hosilini sof og‘irligi bo‘limiga don qabul qilish maskanlari hisobchilari tahlil natijalari bo‘yicha hisobotlarni qabul qilish kuni yopilgunga qadar kiritib boradi.



Fermer xo‘jaliklari hosili



G‘alla hosili yuklagan transport vositalari












Fermer xo‘jaliklari hosili
G‘alla hosili yuklagan transport vositalari
Yuk xati
Tahlilhona
Torozixona
ҒАЛЛАНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШ
12500
ТАРАНИ ЧИҚАРИШ
5680
G‘alla hosili yuklagan transport vositalari
Kompaniya monitoring markazi
G’alla qabul qilish maydoni
G‘alla hosili tushingan transport vositalari